Tarvuz va qovun sifatiga qo‘yilgan talablarni o‘rganish

Minimal talablar
Barcha navdagi tarvuzlar har bir nav uchun belgilangan maxsus talablar va ruxsat etilgan chetlanishlarni inobatga olgan holda quyidagi talablarga javob berishi kerak:
- Shikastlanmagan bo‘lishi;
- Sifatli bo‘lishi, ya’ni chirigan yoki boshqa yaroqsiz holga kelgan mahsulot qabul qilinmaydi;
- Toza bo‘lishi, deyarli ko‘rinadigan begona moddalar bo‘lmasligi;
- Zararkunanda hasharotlardan xoli bo‘lishi;
- Zararkunandalar yetkazgan shikastlanishlardan deyarli xoli bo‘lishi;
- Qattiq bo‘lishi;
- Haddan tashqari nam yuzaga ega bo‘lmasligi;
- Begona hid va/yoki ta’mdan xoli bo‘lishi;
- **Tarvuzlarning yetilish darajasi va holati quyidagilarni ta’minlashi kerak**:
  - Tashish, yuklash va tushirish jarayonlariga bardoshli bo‘lishi;
  - Manzilga yetib borganda qoniqarli holatda bo‘lishi;
- Tarvuzlar yetarli darajada rivojlangan va yetilgan bo‘lishi kerak: go‘shtining rangi va ta’mi yetilganligini tasdiqlashi lozim.

Tekshiruv talablariga ko‘ra
- Ichki bo‘shliqlarsiz bo‘lishi kerak.

Tashqi rangi
- Bir xil yashil yoki chiziqli och-yashil va to‘q-yashil ranglarda bo‘lishi, shu bilan birga, o‘sish davomida yer bilan tegishgan qismida rangsizlanish ruxsat etiladi.

Ichki rangi
- Yorqin pushtidan qizilgacha bo‘lishi kerak.



Ruxsat etilgan nuqsonlar

Poyasi atrofida pulpa ichiga kirmaydigan mayda yoriqlar ruxsat etiladi. O‘sish va pishib yetilish davrida tuproqqa tegib turgan qismning rangsiz yoki och tusli bo‘lishi me’yorda hisoblanadi. Bu tomon odatda silliq bo‘lmasligi ham mumkin.

Shakldan biroz og‘gan qovunlar ruxsat etiladi, ammo ular g‘ayritabiiy darajada deformatsiyalangan bo‘lmasligi kerak. Pulpa ichki qismida shikastlanishlar va rang defektlari bo‘lmasligi shart. Partiyadagi eng og‘ir qovunning vazni eng yengil qovunning vaznidan 50% dan ko‘proq farq qilmasligi kerak.

Ruxsat etilmaydigan nuqsonlar

Ezilgan yoki yorilgan, ortiqcha pishgan va pulpasida shilimshiq hosil bo‘lgan, yetilmagan va och pushti rangli (iste’molga yaroqsiz), zararkunandalar va qishloq xo‘jalik kasalliklari ta’sirida chuqur shikastlangan, chirigan (po‘stlog‘i yumshoq va bosilganda ichga botib ketadi), yuzasida kimyoviy moddalar qoldiqlari bo‘lgan, achigan, sovuq

I Kategoriya (ruxsat etiladi)

Birinchi navdagi tarvuzlar yaxshi sifatli bo‘lishi kerak. Ular o‘z naviga xos belgilarga ega bo‘lishi lozim.

- Tarvuz poyasining uzunligi 5 sm dan oshmasligi kerak;
- Po‘stloq rangining kichik kamchiliklari ruxsat etiladi; o‘sish davrida tuproq bilan tegib turgan qismning och rangda bo‘lishi kamchilik hisoblanmaydi;
- Yuzaki, bitib ketgan mayda yoriqlar ruxsat etiladi.

Shuningdek, quyidagi kichik nuqsonlarga yo‘l qo‘yiladi, agar ular mahsulotning umumiy tashqi ko‘rinishiga, sifatiga, saqlanishiga va savdo ko‘rinishiga ta’sir qilmasa:

- Ishqalanish yoki yuklash-tushirish jarayonida yuzaga kelgan po‘stloqning kichik shikastlanishlari, agar bu shikastlanishlar umumiy yuzaning 1/16





Po‘stloq rangidagi engil nuqson



Po‘stloqdagi kichik zarar, mevaning 1/16 qismidan ko'p bo'lmagan



Mayda bitib ketgan yuzaki yoriqlar

Minimal talablar

Qovunlar quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- Shikastlanmagan bo‘lishi;
- Sifatli bo‘lishi, ya’ni chirigan yoki boshqa yaroqsiz holga kelgan mahsulot qabul qilinmaydi;
- Toza bo‘lishi, deyarli ko‘rinadigan begona moddalar bo‘lmasligi;
- Zararkunanda hasharotlardan deyarli xoli bo‘lishi;
- Pulpa (go‘sht) qismiga zarar yetkazgan zararkunandalardan xoli bo‘lishi;
- Tashqi ko‘rinishi yangi bo‘lishi;
- Qattiq bo‘lishi;
- Haddan tashqari nam yuzaga ega bo‘lmasligi;
- Begona hid va/yoki ta’mdan xoli bo‘lishi;
- Qovunlarning yetilish darajasi va holati quyidagilarni ta’minlashi kerak:
    - Tashish, yuklash va tushirish jarayonlariga bardoshli bo‘lishi;
    - Manzilga yetib borganda qoniqarli holatda bo‘lishi;
- Qovunlar yetarli darajada rivojlangan va yetilgan bo‘lishi kerak: go‘shtining rangi va ta’mi yetilganligini tasdiqlashi lozim.

Ichki rangi

- Pulpa sut rangida bo‘lishi kerak.

Shakar miqdori

- Kamida 9° Brix bo‘lishi lozim.





